

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SAUROV RAVSHONBEK RUSLANBEK O'G'LI

**IJTIMOIIY DAVLAT QURISHDA DEMOKRATIZM VA
KONSTITUTSIONALIZM: XORIJIY HAMDA MILLIY
TAJRIBALARNING FALSAFIY JIHATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Sciences (DSc)

Saurov Ravshonbek Ruslanbek o‘g‘li

Ijtimoiy davlat qurishda demokratizm va konstitutsionalizm:
xorijiy hamda milliy tajribalarning falsafiy jihatlar.....3

Сауров Равшонбек Русланбек угли

Демократизм и конституционализм в построении социального государства:
философские аспекты зарубежного и национального опыта.....33

Saurov Ravshonbek Ruslanbek ugli

Democracy and constitutionalism in the formation of social state:
philosophical aspects of foreign and national experiences.....69

E‘lon qilingan ishlar

Список опубликованных работ
List of works published.....74

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SAUROV RAVSHONBEK RUSLANBEK O'G'LI

**IJTIMOIIY DAVLAT QURISHDA DEMOKRATIZM VA
KONSTITUTSIONALIZM: XORIJIY HAMDA MILLIY
TAJIRIBALARNING FALSAFIY JIHATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Fal230 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich
falsafa fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlar doktori, professor

Musayev Faxriddin Abdusattarovich
falsafa fanlar doktori, professor

Jo'rayev Luqmon Narzullayevich
falsafa fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning **2025 yil " 9 " avgust soat 09:00** dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (**699** raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati **2025 yil " 26 " iyul** kuni tarqatildi.

(2025 yil "**26 " iyul** dagi **20** raqamli reyestr bayonnomasi.)




Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor


Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor


Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar har bir xalq, millat, davlat hayotiga, taqdiri va siyosatiga ta'sir etib, gegemonizmning mohiyatini ham, ko'rinishini ham yangi qiyofa kasb etishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'zining etnomadaniy va etnosiyosiy tajribalariga tayanib, milliy demokratik taraqqiyot yo'lini takomillashtirishni, jahon sahnasida yanada faol, yanada mustaqil harakat qilishga undamoqda. Shuning uchun demokratsionalizm prinsipiga xos har bir subyekt global siyosiy jarayonlarning faol aktori sifatida rolini, uning xorijiy va milliy etnosiyosiy tajribalardagi shakllari va ko'rinishlari, davlat, hokimiyat va boshqaruv faoliyatiga pozitiv ta'siri hamda ijtimoiy-siyosiy institutlarni paradigmal xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida ijtimoiy davlat g'oyasi faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy siyosat emas, balki demokratik qadriyatlar tizimi sifatida, shuningdek bu jarayonda uni demokratizm va konstitutsionalizm bilan uyg'unlashtirish muammolariga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Insonparvar va adolatli bo'lish, konstitutsiyaviy qadriyatlar orqali xalq manfaati ustuvorligini ta'minlash borasida yangi konseptual yondashuvlar jamiyatda barqarorlik, tenglik, demokratik qadriyatlar, ijtimoiy adolat, inson manfaatining ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, demokratizm va konstitutsionalizmning falsafiy kategoriyalarini, ularning o'zaro dialektik aloqasini, ijtimoiy davlat qurilishidagi metodologik asoslarini, ijtimoiy adolat va inson huquqlari borasidagi qarashlarni falsafiy mezonlar asosida tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyil konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlanib, sifatli ta'lim, tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlash, bandligini ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. "Bugun O'zbekistonda ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu mamlakatimizning siyosiy qudrati va iqtisodiy imkoniyati tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bugungi O'zbekiston – biz orzu qilayotgan, intilayotgan, tom ma'nodagi Yangi O'zbekiston emas. Bunday yuksak marraga yetish uchun oldimizda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Shu paytgacha bosib o'tgan yo'limiz oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil olg'a borishdan, kerak bo'lsa, xalqimiz manfaatlari yo'lida kutilmagan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan ham cho'chimasligimiz zarur. Shu bilan birga, Yangi O'zbekistonni bunyod etish uchun xalqimizning orzu-intilishi hamda keng qamrovli islohotlarimizning mohiyati va falsafasini aks ettiruvchi yangi g'oyalar va yangicha dunyoqarash ham talab etiladi"¹. Shu nuqtayi nazardan, bu yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo qilishda demokratik va

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "О'zbekiston", 2024. -Б.36-37.

konstitutsion tamoyillarni, ushbu paradigmalar jarayonlarni yoshlar ongiga singdirish omillarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "“O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2023-yil 8-maydagi PF-67-son "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida” farmonlari, 2019-yil 13-dekabrdagi PQ-4551-son "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 588-son "2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Demokonstitutsionalizm prinsipining shakllanishi, evolyutsiyasi, ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri, uning umumplanetar voqelikka aylanish jarayonlari, milliy davlatlarda qaror topish xususiyatlari va ziddiyatlari, davlat boshqaruvi institutlari bilan xalq, omma, hokimiyat bilan fuqaro o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga oid muammolarni jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, ya'ni University of Oxford, University of Warwick, Nottingham University (Angliya), Sorbonne universite (Fransiya), Standford university, Emory Law University, Lincoln University (AQSH), Australia National University (Avstraliya), Universität zu Köln (Germaniya), Copenhagen Business University (Daniya), Moskva davlat universiteti, Novosibirsk milliy tadqiqot davlat universitetining Falsafa va huquq instituti, O.E.Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti. (Rossiya), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi,

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.ceu.edu/>; <https://www.waseda.jp/fire/gsaps/en/>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.conted.ox.ac.uk/>; <https://www.frankfurt-university.de/>; <https://www.eriei.com/>; <https://inrs.ca/>; <https://www.unescap.org/>; <https://www.ined.fr/en/>; <https://www.demogr.mpg.de/en/>; <https://knowledge4policy.ec.europa.eu/>; <https://www.unl.edu/>; <https://www.bib.bund.de/EN/>; <https://www.anu.edu.au/>; <https://msu.ru/>; www.nuu.uz/; www.ferpi.uz/; <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m7569> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi I.M.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti, Namangan davlat universiteti Samarqand davlat chet tillari universiteti, Toshkent xalqaro universiteti (O'zbekiston) tomonidan o'rganilmoqda.

Dunyoda ijtimoiy davlat qurishda demokratizm va konstitutsionalizm prinsiplari bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: zamonaviy siyosiy hayotda uchrayotgan demokratiya modellari va uning o'nga yaqin ko'rinishlari asoslangan (University of Oxford, Angliya), ijtimoiy demokratik siyosat va globalizatsiyaning o'zaro munosabati ochib berilgan (University of Warwick, Angliya), ijtimoiy davlatning intellektual ildizlari, demokratizm va byurokratiyaning aloqasi asoslab berilgan (Nottingham University, Angliya), ideologiya va totalitarizmning demokratiya bilan munosabati asoslab berilgan (Sorbonne universite, Fransiya), kuchli davlat tashkil qilish va boshqaruv strategiyalari, jahonda tartibni saqlash muammosi ochib berilgan (Standford university, AQSH), ijtimoiy davlat va konstitutsionalizm mexanizmlari ishlab chiqilgan (Emory Law University, AQSH), ijtimoiy davlat transformatsiyasi, konservativ-liberal demokratiya, koalitsion hukumat va ijtimoiy siyosat tamoyillari aniqlangan (Lincoln University, AQSH), parlamentar konstitutsionalizm (Australia National University, Avstraliya), konstitutsiyaning funksiyalari (Universität zu Köln, Germaniya) ochib berilgan, degeneratsiya, ijtimoiy demokratiya, illiberalizm siyosatining o'zaro aloqasi asoslangan (Copenhagen Business University, Daniya), dunyodagi siyosiy jarayonlar bilan bog'liq yangi nazariyalar taklif qilingan (Московский Государственный Университет, Rossiya), zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasi konstitutsionalizm prinsipi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan (Институт философии и права Новосибирского национального исследовательского государственного университета, Rossiya), konstitutsionalizmning istiqboldagi yo'nalishlari asoslangan (Moskva davlat universiteti, Novosibirsk milliy tadqiqot davlat universitetining Falsafa va huquq instituti, O.E.Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti, Rossiya), konstitutsiya va inson huquqlarini yanada rivojlantirish masalalari yoritilgan (Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston), demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi I.M.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti), O'zbekistonda milliy demokratik taraqqiyotning falsafiy-huquqiy masalalari (Namangan davlat universiteti), demokratizm va konstitutsionalizmning immanent xususiyatlari (Samarqand davlat chet tillari universiteti), demokratizmning davlat xizmatlari ko'rsatish institutlari misolida (Toshkent xalqaro universiteti).

Dunyoda konstitutsionalizm va demokratizمنى o'rganish bilan bog'liq bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: demokratizm va konstitutsionalizmning global voqelikka aylanib borayotganligi; xalqaro siyosatning dunyoda polipolyar munosabatlarga ta'siri; xalqaro munosabatlarning milliy, etnosiyosiy tajribalar bilan bog'lanishi; demokonsitutsionalizmga mutlaq yangicha yondashuvlarning rivojlanayotganligi;

zamonaviy ijtimoiy-siyosiy borliq, xalqaro jamiyat sxemalari, tartiblari va modellari; g'arb liberal demokratiyasining inqirozi va "soxta demokratiya" hamda dunyo ijtimoiy-siyosiy va kratologik merosida, mumtoz falsafasida zamonaviy demokonsitutsionalizm muammolariga qaratilgan nazariy g'oyalar va yondashuvlarni ochib berish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda ijtimoiy davlat qurish, demokratizm va konstitutsionalizm mavzulari doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik, insonparvar va ijtimoiy tenglik, adolat qaror topgan jamiyat qurish, erkin va farovon hayot barpo etish masalalari insoniyatni qadimdan qiziqtirib keladi. Platon, Aristoteldan tortib, to G.Kissendjer, Zb.Bzejnskiy, E.Fromm, K.Popper, F.Fukuyama, I.Vallerstayn, D.Held, S.Makdaniel, S.Pierson, R.Aron, A.Naim, H.Bohel, P.Martin, V.Beytmenlargacha bo'lgan tadqiqotchilar muammoning ayrim, ilmiy metodologik ahamiyatga ega masalalarini o'rganishgan³. Yevropa falsafasida demokratik boshqaruvda "konstitutsiyaviy adolat", "ijtimoiy ishtirok", "aktiv fuqarolik" kabi tushunchalar Yu.Habermas, J.Rouls, D.Dvorkin kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan⁴.

Shuningdek, xalqparvar, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat prinsiplariga amal qiluvchi, har bir fuqarosining baxtli, farovon yashashishi haqida qayg'uruvchi ijtimoiy davlat qurish bilan bog'liq muammolar Sharq tafakkuri, falsafasi va siyosiy-huquqiy ta'limotlarida ham tadqiq etiladi. Bu o'rinda Konfutsiy, Men Szi, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Alisher Navoiy, Bobur, Abay, jadidchi bobolarimizdan Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov kabilarning nomlarini keltirish mumkin⁵.

³ Платон. Государство.- М.: Изд. АСТ, 2022; Аристотель. Политика. – М.: Изд. АС. 2022. – 78 с.; Киссенджер Г. Мировой порядок.- Москва: AST Publishers, 2015. 574 с.; Бзежинский Зб. Великая шахматная доска: господство Америки и его геостратегические императивы. – М.: АСТ, 2014. 702 с.; Фромм Э. Озодликдан қочиш.- Т.: Янги аср авлоди, 2021. 348 б.; Поппер К. Открытое общество и его враги.- Москва: Культурная инициатива, 1991. 390 с.; Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок в XXI веке. - Москва: АСТ, 2016; Вальерстейн И. Концепт знакомого мира. Социология XXI века. – М.: Логос, 2004. 364 с; Held D. Models of Democracy. Oxford, 1987; McDaniel, S. Post-crisis social democratic policy capacity in France and the United Kingdom: A lesson from the globalisation and social democracy debate. – France, 2014. – P.12, 283-309; Pierson, C., & Leimgruber, M. Intellectual Roots of the Welfare State. The Oxford Handbook of the Welfare State, 2021; Арон Р. Демократия и тоталитаризм. – М.: ИНФРА, 1998; Abdullahi An-Na'im, Welfare State and Constitutionalism: Nordic Perspectives, International Journal of Constitutional Law, Volume 1, Issue 4, 2003, – P.741; Bochel H., & Martin P. The transformation of the welfare state? The Conservative-Liberal Democrat coalition government and social policy, in Hugh Bochel, and Martin Powell (eds), The Coalition Government and Social Policy: Restructuring the Welfare State (Bristol, 2016; online edn, Policy Press Scholarship Online, 19 Jan. 2017); Bateman, W. (2020). Public Finance and Parliamentary Constitutionalism. Cambridge University Press.

⁴ Habermas, J. Between Facts and Norms. MIT Press, 1996; Rawls, J. A Theory of Justice. Harvard University Press, 1971. p. 3; Dworkin, R. Law's Empire. Harvard University Press, 1986.

⁵ Конфуций. Мысли и изречения.-Минск: ООО Попурри, 1997. 234 с.; Мэн-цзы // Предисл. Л. Н. Меньшикова. Пер. с китайского, указ. В. С. Колоколова; под ред. Л. Н. Меньшикова. – СПб.: Петербургское востоковедение, 1999. – 272 с. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шахри.- Т.: А.Қодирий номидаги Халқ ижоди наشري, 1993. 286 б.; Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968; Ibn Sino. "Hikmatlar", Т.: Fan nashriyoti, 1980. Ибн Рушд. Опровержение опровержения. //Сагадеев А.В. Киев, 1999. Навоий А. Ҳикматлар.- Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2013. 254 б. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2020. – 448 б. Абай К. Танланган асарлари. Т.: Ўздабиётнашр, 1961. 202 б. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi. Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011. Фитрат А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Маънавият, 2020. Бехбудий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изохлар; Б. Қосимов. — 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. – Т.: «Маънавият», 1999. – 280 б. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. –Т.: «Маънавият», 2003. – 304 б.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari ham muammoning ayrim masalalarini o'rganishgan. Bu borada K.Gadjiyev, V.Nersesians, T.Zaslavskaya, V.Pugachev, A.Solovev, A.Tixomirov, A.Nudenko, U.Saralayev, B.Isayev, Sh.Ezenshtadt, O.Kutafin, V.Fadeyev, A.Medushevskiy, kabi tadqiqotchilarning asarlarini, ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin⁶.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat haqidagi qarashlar, ilmiy izlanishlar demokstitutsionalizm prinsipini obyektiv anglash va baholash uchun, davlatimizni mustahkamlash, ijtimoiy va jo'g'rofiy birligini asrash, demokratik islohotlar o'tkazish yo'llarini belgilab olish uchun juda zarur. Bu o'rinda A.Saidov, M.Mirxamidov, X.Odilqoriyev, F.Raximov, Sh.Murodxo'jayev, N.Jo'rayev, F.Xatamov, D.Ernazarov, V.Alimasov, I.Ergashev, F.Musayev, B.Talapov, M.Xajiyeva, O.G'aybullayev, Sh.Negmatova, S.Berdikulov, J.Yaxshilikov, S.Choriyev, L.Jo'rayev, A.Sharipov, D.Norqulov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini eslash mumkin⁷. Ushbu tadqiqotlarning umumiy metodologik

⁶ Гаджиев К.С. Геополитика. – Международные отношения, 1997; Нерсисянц В.С. Конституционализм как общегосударственная идеология // Конституционно-правовая реформа в Российской Федерации. 2000. – №. 2000; Заславская Т.Н. Человеческий потенциал в современном трансформационном процессе // Общественные науки и современность. – 2005. – №. 4. – С. 13-25; Пугачев В.П., & Соловьев А.И. Введение в политологию. Учебное пособие. 2 е изд.- М.: Аспект Пресс, 1995; Тихомиров Ю.А. Публичное право. Учебник.- М.: БЕК, 1995; Нуденко А.А. Теория демократии.- М.: Юристъ, 2001; Саралаев У. К. Геополитическая роль Центрально-Азиатского региона в современную эпоху //ЖАРЧЫСЫ. – 2015; Исаев Б. А. Геополитика классическая и современная // Полис. – 2011. – №. 2; Эйзенштадт Ш.Н. Революция и преобразование обществ: Сравнительное изучение цивилизаций. – М.: Аспект Пресс, 1999; Кутафин О.Е., & Фадеев В.И. Муниципальное право Российской Федерации. — М.: Юристъ, 1997; Медушевский А. Конституционная реформа в Туркменистане: переход к демократии или модернизация авторитаризма // “Конституционное сравнительное обозрение”, 2008, №6 (67). – С. 6; Медушевский А.Н. Политические режимы Средней Азии: конституционные реформы в авторитарной модернизации // “Правовое государство: теория и практика”, 2012, №1. – С.202-217;

⁷ Саидов А. Конституциявий ислохотлар – сайловчилар хохиш иродаси, замон талаби // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 24 май; Мирхамидов М. Ўзбекистонда демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қуриш йўлида. -Т.: Университет, 1997; Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: Шарқ, 2002; Рахимов Ф. Конституциявий ҳуқуқларни таъминлашда давлат органларининг масъулиги – Т.: Маънавият, 1998; Муродхўжаев Ш. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т.: Шарқ, 2002; Шермухамедов С. Биз қандай жамият қурмоқдамиз? – Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2000; Муродхўжаев Ш., & Шодиев Н. Ўзбекистон – конституциявий давлат. -Т.: Ўзбекистон, 2003; Жураев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Т.: «Маънавият», 2008. – 464 б. Eranazarov D. Ilmiy adabiyotlarda Ijtimoiy davlat tushunchasi va uning xususiyatlari // Ma'naviy tarbiya va targ'ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta'sirchan usullari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: «Afzalzoda books» nashriyoti, 2023. – B. 291-296. Хатамов Ф.Ф. Бошқарув институтлари ходимларининг ҳуқуқий маданияти. Монография. – Тошкент: “Zilol buloq”нашриёти. 2021, — 160 бет. Алимасов В. Конфуцийлик ва Шарқ давлатчилиги. -Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр, 2007; Ergashev I., & Nabiyeu M. (2024). Democratic Foundations and Principles of the Transformation of Social Ideas in New Uzbekistan. «ACTA NUUZ», 1(1.2.1), – Pp. 252–255. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.2.1.1213>. Khajieva M. Corruption And Its Influence On The Society // Journal of Contemporary Issues in Business and Government. T-27, № 1. 2021. – Pp. 219-224. Ғайбуллаев О. Янги Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришда ахлоқий қадриятларнинг ўрни // “Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari 2024/5. № 4(21). – Б. 59-66. Негматова Ш. Жамият ва давлатни бошқаришнинг маънавий-ахлоқий асослари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари Т.: O'zbekiston, 2007. – 272 б. Talapov B. O'zbekistonda demokratiya va milliy demokratik taraqqiyot masalalari/darslik/ Namangan: Usmon Nosir media, 2023. – 227 б. Бердикулов С. Демократик янгиланиш жараёнларида сиёсий партияларнинг ўрни.Т.: Ўзбекистон. 2011. Яхшиликов Ж.Ж. Мустақиллик йилларида фуқаролик ҳуқуқи тамойилларини билишнинг фалсафий методологик асослари: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дис. – Самарқанд: СамДУ, 2019. – Б.14.; Чориев С. Ренессанс даври. Европа фалсафаси. Дарслик. – Т.: Тафаккур қаноти, 2015. – 112 б. Juraev L. Philosophical Fundamentals of Innovative Development Processes in Modern Uzbekistan Society // Theoretical & Applied Science, 2019. – Pp. 445-448. Sharipov A. Actual Tasks of Ensuring Harmony of Uzbek Philosophy and Development Strategy // International

yoʻnalishlarida siyosiy-huquqiy yondashuv ustunligi, ijtimoiy davlat, demokratizm va konstitutsionalizm masalalarini huquqshunoslik va siyosatshunoslik doirasida tadqiq etish konteksti namoyon boʻladi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda erishilgan ilmiy-nazariy xulosalar va natijalar ilmiy metodologik ahamiyatga ega. Aksariyat tadqiqotlar koʻproq normativ koʻrinishda bayon etilib, muammoning ontologik va aksiologik asoslari chuqur tahlil qilinmagan. Ilmiy ishlarning koʻpi ideal konsepsiyalar asosida qurilgan boʻlib, amaldagi demokratik institutlar faoliyati, ijtimoiy adolatni taʼminlashda reallikdagi muammolar yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ushbu tadqiqot ishida ijtimoiy davlat, demokonsitutsionalizm falsafasining ijtimoiy mohiyati, maʼnaviy va tarixiy asoslari, ijtimoiy ongda aks etishi kabi masalalarga alohida eʼtibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oʻzbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy anʼanalar va ularning zamonaviy koʻrinishlarini targʻib etuvchi platforma yaratish” (2022-2026) mavzusidagi PZ-2020022811 raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi Oʻzbekistonda ijtimoiy davlatning mustahkamlanishida demokratizm va konstitutsionalizm tamoyillarining ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“demokratizm” va “konstitutsionalizm” tushunchalarining ilmiy-etimologik talqinlarini aniqlash, ularning ijtimoiy taraqqiyotga taʼsiriga oid ilmiy konsepsiyalarni tahlil qilish;

xorijiy va milliy etnosiyosiy tajribalardagi demokonsitutsionalizmning shakllari, koʻrinishlari va boshqaruv faoliyatiga pozitiv taʼsirini aniqlashtirish;

demokonsitutsionalizmning sharqona va gʻarbona modellarini tadqiq etish hamda ularning ijtimoiy davlat taraqqiyotiga, konstitutsiyaviy huquqiy madaniyatning shakllanishiga taʼsirini ochib berish;

Yangi Oʻzbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini hamda konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyatini asoslash;

oʻzbek ijtimoiy davlatining ijtimoiy prinsiplarini aniqlash, demokonsitutsionalizmdan samarali foydalanish tajribalarini umumlashtirish hamda mavjud muammolarga ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ijtimoiy davlat barpo etish jarayoni, konstitutsionalizm va demokratizm oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik va bu boradagi xorijiy va milliy tajribalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Yangi Oʻzbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda demokratizm va konstitutsionalizm tamoyillarining falsafiy mohiyati, ularning institutsional ifodasi, Sharq va Gʻarb davlatlaridagi tajribalarning umumiy va farqli jihatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, sotsiodinamik kuzatuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

demokonstitutsionalizm (xalq hokimiyati, ishtirok, ochiqlik va huquq ustuvorligi, qonuniylik, institutsionallik kabi integratsiyalashgan

tamoyillar tizimi) prinsipining inson qadri, huquqi, adolat va erkinlikni davlat boshqaruvi tamoyillariga uyg'unlashtirish konsepsiyasi, insonparvarlik (gumanizm), qadriyatga asoslangan tartib (axloq) ba ijtimoiy birdamlik xususiyatlari dialektik uyg'unlikni ifodalovchi nazariy-falsafiy model sifatida ochib berilgan;

demokonstitutsionalizmning xorijiy va milliy etnosiyosiy tajribalardagi ko'rinishlari (sotsial huquqiy davlat, sekulyar konstitutsional demokratiya, milliy-demokratik, konstitutsiyaviy) hamda ularning ijtimoiy himoya tamoyillari, erkinlik, tenglik qadriyatlari, diniy-madaniy qadriyatlar va konstitutsion tamoyillar uyg'unligi, milliy o'zlik, xalq ishtiroki, huquqiy yangilanish kabi paradigmalar xususiyatlarining boshqaruv faoliyatiga pozitiv ta'siri aniqlashtirilgan;

demokonstitutsionalizmning tuzilmaviy, tarixiy, madaniy va boshqaruv tamoyillariga ko'ra sharqona (jamoaviylik, axloqiylik, milliy qadriyatlar paradigmasi) va g'arbona (konstitutsiyaviylik, individualizm, fuqarolik huquqlari, sekulyarlik, erkinlik paradigmasi) modellaridagi siyosiy hokimiyatni cheklash, axloqiy legitimlik va jamoat nazorati kabi omillar asosida uning madaniy moslashuvchan model ekanligi dalillangan;

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda demokonstitutsionalizmning xalq hokimiyati, erkinlik, konstitutsiyaviy tartib, ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rni hamda konstitutsion islohotlarning ijtimoiy davlatning demokratiya va inson qadriyatlariga asoslangan modelini shakllantirishda demokratik (xalq ishtiroki, erkin saylov, so'z erkinligi, OAV roli), va aksiologik (inson qadri, adolat, erkinlik) kabi g'oyaviy-falsafiy tamoyillari asoslab berilgan;

o'zbek ijtimoiy davlatining milliy institutsional muammolari (ijtimoiy siyosatni yurituvchi tashkilotlar o'rtasida vakolatlar chalkashligi, ijtimoiy davlat tamoyillarining huquqiy normalarga to'liq integratsiyalashmaganligi) aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar (vakolatni normativ jihatdan aniq belgilash, "ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari"ni joriy etish, mahalla, diniy va ma'rifiy institutlarni ijtimoiy birdamlik institutsiyasi sifatida qayta konseptuallashtirish, "Adolatli xizmat" indeksi mezonlari asosida baholash tizimini joriy qilish) ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

demokratizm saylov, o'z fikrini erkin bildirish, siyosiy partiyalar va ixtiyoriy uyushmalar tashkil etish, hukumat tuzadigan dasturlarni qo'llab-quvvatlash yoki ularga tuzatishlar kiritish, yig'ilishlar va mitinglar o'tkazish, hukumat faoliyatini nazorat qilish kabi inson huquqlarida namoyon bo'lishi va plyuralizm demokratizmning ochiq va zamonaviy ko'rinishi ekanligi asoslab berilgan;

demokratizm va konstitutsionalizm prinsipining samarali tatbiq etilishi ijtimoiy davlat modelini shakllantirishda davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatli hamkorlik ta'minlashga, konstitutsiyaviy qadriyatlarni real boshqaruv va ijtimoiy institutlar faoliyatida ro'yobga chiqarishga, milliy demokratik pozitiv ta'sir ko'rsatishi aniqlashtirilgan;

mamlakatimizni "konstitutsiyaviy normalar – amaliy siyosat – xalq ishtiroki – huquqiy madaniyat" tamoyili asosida demokonsitutsion rivojlantirishning integrallashgan innovatsion modeli ("ijtimoiy davlat" va "xizmat qiluvchi davlat" konsepsiyalarini uyg'unlashtirish, "Ijtimoiy adolat indeksini" ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qilishda fuqarolarning huquqiy murojaat va monitoring platformasini yaratish) hamda uni ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlovchi yangi qonunlar ishlab chiqish, idoraviy amaliyotda xizmat ko'rsatish indeksleri, ijtimoiy baholash mezonlarini qo'llash, axborot makonida inson huquqlari targ'ibotini kuchaytirish kabi mexanizmlari ishlab chiqilgan;

o'zbek ijtimoiy davlatining milliy institutsional inson huquqlari ustuvorligini real hayotda ta'minlash, xizmat qiluvchi davlat modelini shakllantirish, fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish, jamoaviy nazorat va ochiqlikni kuchaytirish kabi hamda davlat tizimining barcha darajadagi institutlar bilan funksional muvofiqligini ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ijtimoiy samaradorlik indeksi asosida baholash kabi muvofiqlashtiruvchi strategik yo'nalishlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan ijtimoiy davlat tushunchasini inson qadri, ijtimoiy adolat, axloqiy mas'uliyat va fuqarolik ongiga asoslangan falsafiy hodisa sifatida asoslashda, aksiologik va ontologik asoslarini tadqiq etishda, demokratizm va konstitutsionalizm o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ochib berishda, ijtimoiy davlat qurilishining universal va milliy xususiyatlarini, milliy ijtimoiy davlat modeli uchun falsafiy asos yaratishda, davlat va jamiyat munosabatlariga yangicha nazariy qarashlar, fikrlar hamda g'oyalar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi, konstitutsiyaviy islohotlar, ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlovchi yangi qonun loyihalarini ishlab chiqishda, demokratik boshqaruv va xalq ishtirokini oshirishga qaratilgan konstitutsiyaviy mexanizmlarning huquqiy asosini yaratishda, normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasida, falsafiy mezonlar orqali ijtimoiy adolatga moslik, inson

manfaatlari ustuvorligini baholashda qo'llanilishi, davlat xizmatchilarini tayyorlash va malakasini oshirish, ijtimoiy davlat, demokratik boshqaruv, fuqarolik mas'uliyati mavzulari bo'yicha o'quv-modullar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda, mahalla institutlarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarida "Demokratik boshqaruv falsafasi", "Ijtimoiy davlat nazariyasi", "Konstitutsional adolat" kabi yangi fanlar joriy etilishida, fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy nazorat, ommaviy fikr shakllantirish, konstitutsiyaviy qadriyatlarni targ'ib etish bo'yicha dasturlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy davlat qurishda demokratizm va konstitutsionalizmning namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida:

demokonstitutsionalizm (xalq hokimiyati, ishtirok, ochiqlik va huquq ustuvorligi, qonuniylik, institutsionallik kabi integratsiyalashgan tamoyillar tizimi) prinsipining inson qadri, huquqi, adolat va erkinlikni davlat boshqaruvi tamoyillariga uyg'unlashtirish konsepsiyasi, insonparvarlik (gumanizm), qadriyatga asoslangan tartib (axloq) va ijtimoiy birdamlik xususiyatlariga oid ilmiy yangilik va xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqam "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" (2018-2020 yy) amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-iyundagi № 04/11-7031-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizni demokonstitutsion rivojlantirish, davlat institutlarini xalqqa xizmat qildirish, inson qadrini ulug'lash, uning huquq va erkinliklarini real hayotda ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha innovatsion asosdagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

demokonstitutsionalizmning xorijiy va milliy etnosiyosiy tajribalardagi ko'rinishlari (sotsial huquqiy davlat, sekulyar konstitutsional demokratiya, milliy-demokratik, konstitutsiyaviy) hamda ularning ijtimoiy himoya tamoyillari, erkinlik, tenglik qadriyatlari, diniy-madaniy qadriyatlar va konstitutsion tamoyillar uyg'unligi, milliy o'zlik, xalq ishtiroki, huquqiy yangilanish kabi paradigmal xususiyatlarining boshqaruv faoliyatiga pozitiv ta'siriga oid ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida, jumladan 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ'iboti" 10-band "Avval–inson, keyin–jamiyat va davlat" g'oyasini aholi ongiga chuqur singdirish hamda milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy va targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 5-iyundagi 10/327-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz fuqarolari dunyoqarashini yuksaltirishga, ayniqsa, yoshlar ongida yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayonida demokratizm va

konstitutsionalizmning o'rne, konstitutsion islohotlarning falsafiy va kratologik mohiyati haqida bilimlarni shakllantirishga hamda siyosiy-huquqiy tafakkurini oshirishga xizmat qilgan;

demokonstitutsionalizmning tuzilmaviy, tarixiy, madaniy va boshqaruv tamoyillariga ko'ra sharqona (jamoaviylik, axloqiylik, milliy qadriyatlar paradigmasi) va g'arbona (konstitutsiyaviylik, individualizm, fuqarolik huquqlari, sekulyarlik, erkinlik paradigmasi) modellaridagi siyosiy hokimiyatni cheklash, axloqiy legitimlik va jamoat nazorati kabi omillar asosida uning madaniy moslashuvchan model ekanligiga oid xulosalar va umumlashmalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Globallashuv asoslari" darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 4-iyundagi 02/01-01-204-son ma'lumotnomasi). Natijada, bu takliflar talabalarda g'arb va sharq demokonstitutsionalizmning differensial va o'xshash jihatlarini o'rganishning falsafiy-huquqiy mazmunini anglash, idrok etish imkoniyatini bergan;

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda demokonstitutsionalizmning xalq hokimiyati, erkinlik, konstitutsiyaviy tartib, ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rne hamda konstitutsion islohotlarning ijtimoiy davlatning demokratiya va inson qadriyatlariga asoslangan modelini shakllantirishda demokratik (xalq ishtiroki, erkin saylov, so'z erkinligi, OAV roli), va aksiologik (inson qadri, adolat, erkinlik) kabi g'oyaviy-falsafiy tamoyillariga oid ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan 81-06/160-son "Mahalla – oilalarda ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorlikni ta'minlovchi maskan" nomli loyihaning targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2025-yil 3-iyundagi 01-06/268-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz fuqarolari dunyoqarashini yuksaltirishga, ayniqsa, yoshlar ongida yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi (2022-2026)da mamlakatimizni demokonstitutsion rivojlantirish, davlat institutlarini xalqqa xizmat qildirish, inson qadrini ulug'lash, uning huquq va erkinliklarini real hayotda ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, avtokratizmdan demokratizmga o'tish orqali o'zbek xalqining azaliy orzusi bo'lgan erkin va farovon hayot qurish bosh maqsadimiz haqida bilimlarni shakllantirishga hamda siyosiy-huquqiy tafakkurini oshirishga xizmat qilgan;

o'zbek ijtimoiy davlatining milliy institutsional muammolari (ijtimoiy siyosatni yurituvchi tashkilotlar o'rtasida vakolatlar chalkashligi, ijtimoiy davlat tamoyillarining huquqiy normalarga to'liq integratsiyalashmaganligi) aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar (vakolatni normativ jihatdan aniq belgilash, "ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari"ni joriy etish, mahalla, diniy va ma'rifiy institutlarni ijtimoiy birdamlik institutsiyasi sifatida qayta konseptuallashtirish, "Adolatli xizmat" indeksi mezonlari asosida baholash tizimini

joriy qilish)ga oid ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalardan “O‘zbekiston 24 ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining “Yoshlar” telekanalining 2024 yil yanvar-noyabr oylarida efirga uzatilgan “Iste’dodli tengdoshim”, “Yoshlar press klubi” teleko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 3-iyundagi 05-09-816-son ma’lumotnomasi). Natijada mamlakatimiz fuqarolari dunyoqarashini yuksaltirishga, xususan, yoshlar ongida yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayonida demokstitutsionalizmning ahamiyati, konstitutsion islohotlarning falsafiy mohiyati haqida bilimlarni shakllantirishga hamda ijtimoiy-siyosiy tafakkurini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, bitta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola (12 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 210 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Demokratiya va demokratizm prinsipi: ilmiy metodologik, ijtimoiy-falsafiy siyosiy asoslari**” deb nomlangan va unda “ijtimoiy davlat” va “demokratiya” tushunchalarining ilmiy-etimologik, ijtimoiy falsafiy talqinlari tahlil etilgan, demokratiya va demokratizm prinsipining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri fenomenologik yondashuv asosida aniqlashtirilgan hamda xorijiy davlatlarda demokratiya va demokratizm prinsipi, Sharq davlatlaridagi milliy tajribalar umumlashtirilgan.

“Demokratiya” tushunchasi “xalq hokimiyatchiligi”ni anglatrsa-da, uning zamonaviy talqinlari – davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ko‘ppartiyaviylik, parlament huquqi, inson huquq va erkinliklari, hurfiylik, iqtisodiy demokratiya, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, saylovlar va referendumlarda

qatnashish kabi rang-barang voqeliklarni namoyon qiladi⁸. Demokratiya va demokratizm alohida ijtimoiy-siyosiy voqelik, fenomendir. Ular davlat boshqaruvi bilan uyg'unlashganida falsafiy-kratologik ahamiyat kasb etadi, inson faoliyati va uning boshqaruvdagi ishtirokini rang-barang, ratsional va jamiyat uchun foydali qiladi. Ijtimoiy foydalilik, jamiyat taraqqiyoti manfaatlarini o'zida ifoda etish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganlik demokratiyaning maqsadidir. Demokratizm esa ushbu imkoniyatlarni realizatsiya qilish, obyektivlashtirish usulidir.

Dissertatsiyada ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-huquqiy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida davlat va demokratiya alohida voqeliklar sifatida, ibtidoiy jamiyat va hayot tarzidan sivilizatsiya bosqichiga o'tish davrida paydo bo'lishi tahlil etilgan. Agar ibtidoiy jamiyat va hayot tarzi 2 million yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olgan bo'lsa, sivilizatsiya davriga o'tish uzog'i bilan 6 ming yilni tashkil etadi. Aynan ushbu o'tish bosqichida ibtidoiy davrga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy va xo'jalik yuritish tizimida tub o'zgarishlar sodir bo'lgan, ya'ni iste'molchi xo'jalikdan (ibtidoiy davr kishilari tabiatda nima bo'lsa, shuni iste'mol qilib yashagan) ishlab chiqaruvchi xo'jalikka (yangi iste'mol tovarlarini, mahsulotlarini yaratib yashashga) o'tgan⁹, degan fikr bildiriladi. Ilmiy nuqtai nazardan bu fikr to'g'ri, chunki ibtidoiy jamiyatlarning iste'molchilikdan yaratuvchanlikka o'tishi, tom ma'noda, inqilobiy hodisa edi. Tabiat in'omlarini kutib o'tirmay, mehnat va aql yordamida yangi tovarlar va ne'matlar yaratishga o'tish jamiyatdagi munosabatlarni, tartiblarni tubdan o'zgartirib yubordi, qaysi ijtimoiy birlik, yoki jamoa ko'proq mahsulotni yaratsa, u badavlat va farovon yashash imkoniga ega bo'ldi. Ijtimoiy boyliklar yaratish esa mehnat taqsimoti va kooperatsiyani avj oldirdi.

Tadqiqotchi fikricha, bir tomondan, yangi-yangi narsalarni yaratish mehnat taqsimotini rang-baranglashtirdi, ikkinchi tomondan esa, mehnat jarayonlari ijtimoiy birlikka, kooperatsiyaga undadi. Ushbu ikki, bir birini to'ldirib keluvchi bosqich, jarayon sivilizatsiyaning asosiy belgilari ediki, ular, o'z navbatida, davlat, huquq va demokratiya fenomenlarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyatini oshirdi. Ibtidoiy davrdagi jamoaviy boshqaruv, matriarxal va patriarxal idora usullari, jamoa yetakchisi va unga yordamchilarning saylanishi demokratiyaning ilk ko'rinishlari edi, albatta. Sivilizatsiya bosqichi ushbu demokratiyani umumijtimoiy voqelikka aylantirishning siyosiy-huquqiy asoslari va mexanizmlarini kashf etdi. Mehnat taqsimoti esa qo'shimcha mahsulotlar va ne'matlarning paydo bo'lishini tezlashtirdi, ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida falsafiy-kratologik ahamiyatga ega differentsiatsiya, jumladan "meniki-seniki", "bizniki-sizniki" "buyuruvchi-ijrochi", "taqsimlovchi-ko'nuvchi" diada tizimlari paydo bo'ldi¹⁰. Bu umumiy jihat ilk davlat shakllarining barchasiga taalluqlidir. Biroq bu jihat turli jamoalar va ijtimoiy birliklarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lgan, buni hatto

⁸ Zakaria, F. "The Future of Freedom: Illiberal Democracy at Home and Abroad". W.W. Norton & Co., 2003.

⁹ Qarang: История государства и права зарубежных стран. Часть 1. Изд. 2 е. / Под ред. О.А.Жидкова и Н.А.Крашенинниковой. – Москва: НОРМА ИНФРА М, 2001. – С.3.

¹⁰ Talapov B. O'zbekistonda demokratiya va milliy demokratik taraqqiyot masalalari. – Namangan: Usmon Nosir media, 2023. – B.47.

bugun, ya'ni XXI asrda ham ijtimoiy taraqqiyotning ilk bosqichiga taalluqli turmush tarzi va boshqaruv usullariga ega qabilalar mavjudligi tasdiqlaydi.

Protodavlatchilik an'analarini kuzatgan Platon ibtidoiy bosqichni "oltin davr" deb atagan edi¹¹. Chunki, uning fikricha, bu bosqichda mulkchilik bo'lmagan, hamma narsa jamoaniki, umumiy, hatto bolalar va ayollar ham jamoa mulki bo'lgan. Ushbu ibtidoiy demokratiya davrini Platon ma'qul ko'rgani va namuna sifatida keltirgani uchun uni K.Popper tanqid qilgan¹². Ibtidoiy demokratizm munosabatlar va ijtimoiy ehtiyojlar uncha rivojlanmagan, turmush tarzi kun ko'rishdan va jamoaviy urf-odatlarini bajarishdan iborat edi. Jamoa yig'ini va tabu (taqiqlar tizimi) boshqaruvdagi demokratizm bo'lib ko'rinsa-da, ularning o'z davriga mos, primitiv voqelik ekanini unutish mumkin emas. Protodavlatchilik jamoa yetakchisiga itoat etish, jamoa, urug' va qabila birligini ta'minlovchi normalardan iborat ediki, ular barchaga tushunarli, sodda va e'zozli edi. Biroq, mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu protodavlatchilikda xususiy mulk bo'lmagan, natijada raqobatni, demokratik qadriyatlarning shakllanishiga turtki, sabab yetishmagan. Ayniqsa bu Sharqda yorqin ko'zga tashlanadi. Masalan, Sharqda ko'pgina sivilizatsiyalar (hind-buddaviylik, ossuriya-bobil, konfutsiy-xitoy sivilizatsiyalari) yaralgan bo'lsa-da, xususiy mulkning rivojlanmaganligi sababli boshqarish, ijtimoiy hayot, an'anaviy tasavvurlardan xoli bo'lish, tafakkur rang-barangligi kabi demokratik voqelikka oid jarayonlar deyarli sodir bo'lmadi. Hatto qishloq jamoasini boshqarish, undagi yuqori tabaqaning hukmronligi va yerga egaligi, jamoaviy demokratizmni eslatuvchi ayrim elementlarning uchrashi ham xususiy mulk kabi ijtimoiy hayotga ta'sir etolmadi¹³. Bu mutaxassislarni, Sharqda "despotiya" boshqaruv tizimi shakllangan edi, degan qarorga olib kelgan. Bu boshqaruv markazida shoh naslining hukmronligi, bu hukmronlik cheklanmagan imtiyoz va imkoniyatlarga ega ekani, shohni sakrallashtirish, turmush tarzidagi diniy-ma'naviy an'analar ustuvorligi, boshqarish tizimini, ya'ni saroyni ideallashtirish kabilar qat'iy qaror topgan.

Tadqiqotda demokratiya va demokratizm prinsipi ijtimoiy-siyosiy voqelikka, davlat va jamiyat boshqaruviga, kratologiyaga oid fenomenlar ekanligi borasida ham so'z yuritiladi. Demokratiya va demokratizmga ijtimoiy-siyosiy makon, tuzum, hayot va jarayonlar bilan uzviy bog'liq, alohida fenomenlar sifatida yondashish zarur. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda, ayniqsa ensiklopedik lug'atlarda "fenomen" tushunchasi va voqeligiga quyidagicha ta'riflar beriladi:

- 1) fenomen tajriba, tuyg'ular orqali anglandigan alohida hodisa;
- 2) noumendan, mohiyat asoslaridan farq qiluvchi his tuyg'ular, mushohadalar obyektini hisoblanadi¹⁴.

Mumtoz faylasuflar esa fenomenni mohiyat yoki g'oyalarning ko'rinishi, ifodasi (neoplatonizm, Leybnis, Shelling. Hegel); anglandigan mavjudlik, borliq,

¹¹ Платон. Государство. – Москва: АСТ, 2022. – С. 201-203.

¹² Поппер К. Открытое общество и его враги. Часть 1. – Москва: Культурная инициатива, 1990. – С. 103-106.

¹³ История государства и права зарубежных стран. Часть 1. – Москва: НОРМА ИНФРА М., 2001. – С. 15-17.

¹⁴ Saurov R.R. Davlat hamda jamiyat boshqaruvida demokratiya va demokratizm fenomenlarining ahamiyati // Ilm sarchashmalari – Urganch, 2024. – № 10. – B. 58-60. https://ilmsarchashmalari.uz/user-media/issues_files/2024-10.pdf

ya'ni ilmiy usullar va transsendental subyektning aprior tizimlari orqali anglanadigan hodisalar dunyosi (fenomenlar) (I.Kant va neokantchilar); barcha reallik va tajribalar borib taqaladigan subyektiv kechinmalar, ruhiy holatlar (Berkli, Yum, fenomenalizm) sifatida qarashadi. Gusserl fenomenologiyasida esa intellektual bilish bilan bog'liq hodisa, Platon "eydos"idan, prafenomendan farq qiluvchi "sof ong"ga oid narsalar mohiyatini fenomen sifatida talqin qilinadi¹⁵. Xullas, falsafada "fenomen" deganda ong, tafakkur. "sof aql" orqali mohiyati anglanadigan alohida narsalar, hodisalar tushuniladi. "Obyektiv narsalardan, real borliqdan farq qiluvchi subyektiv in'ikosga taalluqlilik uning immanent xususiyatidir"¹⁶. I.Kant va Gegel fenomenni his-tuyg'ular, din, subyektiv voqeliklar sifatida tushunganlar. I.Kant fikriga ko'ra, fenomen (fenomenologiya) "tashqi his-tuyg'ular hodisasi" hisoblanadi. Gegel esa unga ta'rif bermasa-da, "ruh fenomenologiyasi" ("fenomenologiya duxa")ga ong va u bilan bog'liq voqeliklarni kiritadi. Lekin ikkala faylasuf ham fenomenni alohida voqelik, hodisalar sifatida talqin qilishadi.

Ushbu talqinlar o'zbek olimlari tomonidan ham davom ettiriladi. S.D.Norqulov va F.S.Umarova yozadi: "Keyingi paytlarda "fenomen" tushunchasiga siyosiy-aksiologik mohiyat berish ko'zga tashlanadi. Masalan, M.Sharifxo'jayev uni noyob, betakror, boshqalarnikidan farq qiluvchi, o'zini va o'zligini namoyon qilishda har qanday to'siqlarni yengishga tayyor fazilat, deb ko'rsatadi. Mazkur yondashuv fenomenning siyosiy-aksiologik jihatini, tomonini bo'rttirib ko'rsatadi va bu bilan fenomenning betakror, ijtimoiy, siyosiy-aksiologik voqelik, hodisa ekanini ta'kidlaydi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan fenomen mavjud narsalardan farq qiluvchi narsa, betakror, ijtimoiy qadrlı voqelikdir"¹⁷. Demokratiya va demokratizmning fenomenlar sifatida kelishi, avvalo, ularning to'la amalga oshmagan, ammo o'zining ideal shakli bilan, ijtimoiy-siyosiy hayotdan, kratologik ta'limotlardan joy olib kelayotgani bilan o'lchanadi.

Tadqiqotda demokratiyaning noyob hodisaligi, uning shu paytgacha shakllangan ko'rinishlari, tayyor modellari va me'yorlari yo'qligi, shu nuqtai nazardan, amalga oshmas ideal, fantaziya sifatida qabul qilinishi tahlil etilgan. Ijtimoiy siyosiy adabiyotlarda "to'g'ridan to'g'ri demokratiya" degan tushuncha ko'p ishlatiladi. Ushbu demokratiyaning immanent xususiyatlariga:

- ❖ referendum;
- ❖ xalq qonunchilik ijodkorligi;
- ❖ xalq vetosi (abrogativ referendum);
- ❖ turar joylaridagi aholi yig'inlari;
- ❖ saylovlar orqali boshqaruv jarayonlariga aholining ta'sir etishi;
- ❖ saylangan deputatlar va rahbar xodimlarni qayta chaqirib olish;

¹⁵ Философский энциклопедический словарь. – Москва: Сов. энциклопедия, 1983. – С. 717.

¹⁶ Норкулов С.Д., Умарова Ф.С. Модернизация ва ўзбек этнофаққуридаги янгиланишлар. – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2021. – В.18.

¹⁷ Норкулов С.Д., Умарова Ф.С. Модернизация ва ўзбек этно афакқуридаги янгиланишлар. – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2021. – В.18-19.

❖ saylanadigan organlarni tarqatib yuborish kabilar kiradi¹⁸.

Referendumning genezisi Shveysariyada 1848-yili o'tkazilgan xalq ommasining konstitutsiyaga oid ovoz berishiga borib taqaladi. Shundan beri Shveysariyada 521 ta referendum o'tkazilgan, ulardan 216 tasi konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Unda har yili 4 marta referendum o'tkaziladi. Referendumga hukumatning inson erkinligini davlat in'om etadigan imtiyozlardan biri sifatida e'tirof etishi sabab bo'lgan. Xalq esa erkinlikni fuqaroning tabiiy huquqi sifatida e'tirof etilishini istab ovoz bergan¹⁹. Shuningdek, amaliyotda mahalliy referendumlar ham o'tkazib turiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi subyektlari mahalliy referendumlar o'tkazishi mumkin. Qanday bo'lmasin xalq o'z irodasi va erkini referendumlar orqali ifoda etib, hukumat va davlat organlarini ana shu referendum talablariga, qarorlariga muvofiq ishlashini o'rnatadi.

Dissertantning ta'kidlashicha, "Xalq qonunchilik ijodkorligi" deganda xalq ommasining davlat va hukumat tomonidan qabul qilinadigan qonun, qaror, normalarga munosabatlari, qo'llab-quvvatlashi yoki ularni o'zgartirishga ovoz berishi tushuniladi. Qonunchilik murakkab, o'ziga xos professional bilimlarni taqozo etadi, shuning uchun qonunchilik ijodkorligiga qator talablar ham qo'yiladi. Masalan, davlat chegaralarini o'zgartirish, urush e'lon qilish, milliy taraqqiyot konsepsiyalarini tasdiqlash, harbiy doktrina ishlab chiqish, harbiy sohaga mablag'lar ajratish, vazirliklar tashkil etish yoki ularni o'zgartirish kabilar deyarli barcha davlatlarda davlat boshlig'i funksiyasi hisoblanadi. Xalq qonunchilik ijodkorligi ularga aralashmaydi, o'zgartirolmaydi. Biroq bu jarayonlarga xalq irodasi va qiziqishlari ta'sir etmaydi, degan fikrni bildirmaydi. Xalq ommasi, uning vakillari yoki vakillik organlari, referendumlar davlat boshlig'i qarorlariga o'z munosabatini bildirishi mumkin. Bu xalq ommasining davlat hokimiyatining asosiy manbai ekanini bildiradi. Xalq ommasi o'z irodasi bilan davlat rahbarini alternativsiz, "mutlaq subyekt" vakolatiga ega shaxs qilib qo'ygan. U qabul qiladigan qonun, qaror va normalar barcha fuqarolar uchun majburiydir.

Ilmiy adabiyotlarda demokratiya va demokratizm prinsipi to'g'risida gap ketganida avvalo, AQShni yodga olishadi. Tarixiy manbalar va demokratiya nazariyasiga oid adabiyotlarda ta'kidlanishicha, AQShda demokratik islohotlar va ularni real voqelikka aylantirish 1776-yildan boshlanadi. Aynan shu yili "Mustaqillik deklaratsiyasi" qabul qilinib, undagi demokratik prinsiplarni butun mamlakat bo'ylab joriy etish boshlangan. Mustaqillik deklaratsiyasida "barcha kishilarning teng huquqli va Yaratgan tomonidan ma'lum bir ajralmas huquqlar bilan yaratilgani, ushbu huquqlarga ularning shaxsiy hayoti, erkinligi va baxtga intilishi kabilar kirishi ta'kidlanadi. Mazkur huquqlarini ta'minlash uchun kishilar hukumatlar tuzadi, bu hukumatlar esa o'z huquqlarini o'sha kishilarning roziligidan oladilar. Agar birorta hukumat shakli ushbu maqsadlar uchun zararli bo'lsa, xalq uni o'zgartirish yoki

¹⁸ Qarang: Руденко В.Н. Прямая демократия: модели правления, конституционно- правовые институты. - Москва: Изд. РАН, 2003; Bonjour F. Real Democracy in Operation. The Example of Switzerland. - New York, 2017; Джемоглу Д., Робинсон Дж. Узкий коридор. Государства, общества и судьба свободы. - Москва: Литрес, 2021

¹⁹ Qarang: [https // ru. m. wikipedia. org> wiki](https://ru.m.wikipedia.org/wiki)

tugatish va yangi hukumat ta'sis etish huquqiga ega"²⁰. Ushbu hujjatga muvofiq demokratizmning quyidagi xususiyatlari borligi ko'rsatiladi:

- ❖ xalq suvereniteti;
- ❖ ko'pchilikka bo'ysunish;
- ❖ fuqarolar teng huquqligi;
- ❖ umumiy davlatning mavjudligi;
- ❖ ommaviy- siyosiy partiya shakllangani;
- ❖ talablari;
- ❖ g'oyaviy rang-baranglik.

Demokratiyaning fundamental jihati – xalq hokimiyatchiligi ana shu prinsiplar orqali o'rnatiladigan bo'ldi.

Dissertatsiyada xalq suveren huquqlariga egaligi va u davlat hokimiyatini shakllantirish, hukumat shakllarni yangilash, hatto o'z huquqlari bilan yetakchi siyosiy kuchlar (demokratlar va respublikachilar)ga ta'sir etishi mumkinligi borasida fikr yuritiladi. Darvoqe, Parlament va Kongress a'zolari xalq vakillari sifatida faoliyat yuritadi, uning iroda va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Demokratik partiya va respublikachilar partiyasi o'rtasidagi bahs, raqobat va siyosiy mavqe uchun kurash saylovchilar o'rtasidagi bahslarni ham uyg'otadi. Natijada saylovchilar o'zining siyosiy pozitsiyasi va huquqlarini hukumat, boshqarish institutlariga yetkazishdan manfaatdor bo'ladilar. Nafaqat vakillik organlarining faolligi, shuningdek, saylovchilarning, barcha fuqarolarning siyosiy faolligi demokratiya va demokratizm prinsipining qaror topishi uchun muhimdir. Alekssis de Tokvil (1805-1859 yy) Amerikaga borganida uni ko'proq demokratizm prinsiplarining amalga joriy etilishi, vakillik organlarining hukumat, ommaviy-axborot vositalari, xalq yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari bilan konstruktiv hamkorligi hayratga solgan. Platon, Aristotel kabi qadimgi yunon faylasuflari va Sh.L.Monteskyo, J.J.Russo, A.Smit kabi fransuz ma'rifatparvarlari ilmiy-nazariy merosi ta'sirida ta'lim olgan, shakllangan Alekssis de Tokvil Fransiyaning siyosiy arbobi, tarixchi, davlat xizmatchisi, huquqshunos, vazir lavozimlariga ko'tarilgan, uning bu tajribasi Amerikadagi demokratiyani obyektiv baholashga yordam bergan²¹.

Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar, demokratiya va demokratizm masalalari bilan qiziquvchi tadqiqotchilar Alekssis de Tokvilning asari Yevropada demokratik an'analarning shakllanishiga, davlat institutlari faoliyatini xalqchillashtirishga katta ta'sir ko'rsatganini qayd etadilar. Sh.L.Monteskyo orzu qilgan davlat hokimiyatini uch tarmoqqa ajratish g'oyasi Amerika tajribasi orqali o'zining real asosga ega ekanini ko'rsatdi²². Eng muhimi shundaki, Alekssis de Tokvil Amerika demokratiyasida davlat institutlari va boshqaruv faoliyatining xalqchilligini mamlakat bo'yicha e'tirof etilib, hatto u milliy e'tiqod, turmush tarzi va etnomadaniyat sifatida qabul qilinganidan hayratga tushgan. U Mustaqillik

²⁰ Qarang: United for Human Rights. <https://ru.humanrights.com/decla...>

²¹ Qarang: Алексис де Токвиль. Демократия в Америке. – Москва: Прогресс. 1981.

²² Qarang Monteskye Sh.L. Духи законов. – Москва: Гослитиздат, 1952; Антология мировой политической мысли. в 5 томах. Том 2. – Москва: Инфра М., 1997.

deklaratsiyasi xalqning o'zini o'zi boshqarish, o'z hayoti, farovonligi va baxt saodati uchun, avvalo, o'zi mas'ulligini sezishiga siyosiy, huquqiy zamin yaratib berganini ta'kidlagan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ijtimoiy davlat qurish demokratiya va demokratizm prinsipi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ijtimoiy davlatga eng avvalo demokratik davlat, inson huquq va erkinliklarini, farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan siyosiy institut sifatida qaraladi. Davlat hokimiyati va uning samarali ishlashi, xalq manfaatlariga xizmat qilishi qator muammolarni hal etishga undaydi. Demokratiyaning xalq hokimiyatchiligini ifoda etuvchi voqelik ekani barcha talqinlarning yadrosi, bo'lib qolmoqda. Demokratiya va demokratizm prinsipi xalq hokimiyatchiligi bilan cheklanib qolmaydi, ular jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, siyosiy institutlar va partiyalar, parlament, saylov huquqi, so'z erkinligi, inson huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat, ijtimoiy hamkorlik va ijtimoiy tenglik, o'z o'zini boshqarish organlari, davlatning sotsial funksiyalari va ularni bajarish bosqichlarida yuzaga keladigan kolliziyalar kabilar bilan bog'liqki, ular haqida umumiy tasavvurlarga ega bo'lmay kratologik ta'limotlar va qarashlarni anglab bo'lmaydi. Ushbu ziddiyatli voqeliklarning yadrosini mudom hokimiyat, boshqarish, egalik qilish kabi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega maqsadlar tashkil etadi.

Xorijiy davlatlardagi demokratiya va demokratizm prinsipi borasida ko'plab konsepsiyalar, nazariyalar yaratilgan. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi ham, demokratiya va demokratizm prinsipi ham, qaysi mamlakatda va qaysi ijtimoiy-siyosiy tuzum paytida yaratilganidan qat'iy nazar, muammoni bor ziddiyatlari, yutuqlari va kamchiliklari bilan qamrab olishga yordam beradi. Xalq farovonligi, iqtisodiy demokratiya, mehnatga yarasha haq olish, ko'pmillatli va ko'ptilli ijtimoiy makonda murosada yashashni ta'minlash mamlakatlarni ijtimoiy adolatli boshqarish usuliga aylantiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“G'arb davlatlarida demokratizm va konstitutsionalizm prinsipi: genezisi, evolyutsiyasi, shakllanishining etnosiyosiy xususiyatlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda demokratizm va konstitutsionalizm prinsipining g'arbona modellari, jumladan, Angliyada konstitutsionalizm va siyosiy-huquqiy qarashlarning shakllanishi, hokimiyatning bo'linishi prinsipida Fransiya tajribasi tahlil etilgan, nemis konstitutsionalizmi va falsafiy-kratologik ta'limotlari tadqiq etilib, Amerikada demokratiya va konstitutsionalizm prinsipining shakllanishi qiyosiy analiz qilingan.

Konstitutsiya va konstitutsionalizm prinsipining shakllanishi aslida Yevropada, ayniqsa XVII-XVIII asrlarda ro'y bergan ingliz va fransuz revolyutsiyasi natijasidir. Agar Yangi davr XV-XVI asrlar, ya'ni Uyg'onish va reformatsiya bilan boshlansa, demokratiya, konstitutsiya va konstitutsionalizmning alohida ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida shakllanishi ingliz va fransuz revolyutsiyalari bilan boshlanadi²³. U esa konstitutsiya va konstitutsionalizm prinsipining evolyutsiyasi va bosqichlarini

²³ Qarang: История государства и права зарубежных стран. Часть 2. – Москва: НОРМА ИНФРА М., 2001. – С.2.

aniqlash uchun, Angliya (Buyuk Britaniya) va Fransiya hokimiyatchiligi, huquq tizimini kuzatishga undaydi. Aynan ushbu davrlar va davlatlarda amalga oshirilgan konstitutsion o'zgarishlar, hokimiyatning taqsimlanishi, demokratik saylovlar va boshqarish ishlarida kengroq aholining qatnashishi, xullas, ijtimoiy-siyosiy borliqni tubdan o'zgartirgan huquqiy-kratologik yangilanishlar insoniyat taraqqiyotini yangi pog'onaga olib chiqdi. Bu o'z navbatida zamonaviy konstitutsiya va konstitutsion prinsiplarni shakllantirdi, davlat va jamiyat boshqaruvida demokratik o'zgarishlarni konstitutsiyaviy tarzda qonuniy rasmiylashtirish va hokimiyatchilikda ularga qat'iy amal qilish normalarini, shartlarini yuzaga keltirdi.

Dissertant Angliyada konstitutsionalizm prinsipining shakllanishini 1215-yili qabul qilingan Erkinlik Buyuk xartiyasi bilan bog'laydi²⁴. Biroq bu hujjatning ishlashi uning qabul qilinishiga emas, balki keng xalq ommasining davlat ishlarini boshqarishdagi real ishtiroki, vakillik organining foaliyati bilan bog'liq edi. Feodal monarxiyaga qurilgan davlat boshqaruvi XVII asrga kelib yangi shakllanayotgan tadbirkorlar va ishbiarmonlar, kapital yig'ishdan mohiyat qidirayotgan qatlamning qiziqish va ehtiyojlariga to'siq bo'la boshladi. Sanoatning tez rivojlanishi sanoat burjuaziyasi va tadbirkorlarini, aristokratiyani ijtimoiy- siyosiy hayot sahnasiga olib chiqdi, jamiyatdagi absolyutizm ushbu qatlam qiziqishlariga mos emas edi. Ularning ta'sirida hokimiyat tizimida konstitutsion monarx(qirol hokimiyati) , lordlar palatasi, Yashirin kengash va feodal vakillik organi yuzaga keldi. Feodal absolyutizmning asosini feodal dvoryanlari va ingliz cherkovi tashkil qildi, yangi qatlam, kapitalistik munosabatlar tarafdorlari esa reformatsiya tarafdorlariga, liberal demokratik g'oyalarga tayanishdi. Yangi qatlam "puritanlar" nomini oldi²⁵.

Tadqiqotda Lordlar palatasi bilan qirol o'rtasidagi ziddiyatlar konstitutsionalizm tomon borishga asos bo'lishi izohlanadi. Monarxning umumiy tartiblar va jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy fikriga muvofiq kelmaydigan xatti-harakatlari, uni saqlashga katta mablag'larning ajratilishi, o'z ixtiyoricha davlat boshqaruvini amalga oshirishi kabilar lordlar palatasida turli e'tirozlar uyg'otdi. 1628-yili lordlar palatasi qirol, hukumat xatti-harakatlarini chegaralashga qaratilgan Huquq haqida Petitsiya tayyorladi. Unda quyidagilar kiritilgan edi:

- 1) bundan keyin hech kim umumiy kelishilgan va parlament tomonidan tasdiqlangan tartibsiz soliq va qirol g'aznasiga yig'imlar to'lashi mumkin emas;
- 2) noqonuniy soliqlarni to'lashdan bosh tortgan hech bir kishi hibsga olinishi mumkin emas;
- 3) armiya aholi yashaydigan xonadonlarga joylashtirilishi mumkin emas;
- 4) qonunlar va yurt tartiblariga qarshi chiqqan hech bir kishi, fuqaro hayotdan mahrum etilmasligi kerak.

"Shu tarzda hujjatda qirol va fuqaroning hayoti va mulkiga oid bosh masala qonuniy tarzda hal etiladi"²⁶. Qirol huquqlari cheklanadi, xususiy mulk himoya qilinadi. Keyinchalik parlament yuqori amaldorlarga impeachment e'lon qilishni

²⁴ Страшун Б.А. Конституционализм: идеал. Реальность и возможные перспективы // Сравнительное конституционное обозрение. 2011, – № 5. – С.43.

²⁵ История государства и права зарубежных стран. Часть 2. – Москва: НОРМА ИНФРА М., 2001. – С.2.

²⁶ История государства и права зарубежных стран. Часть 2. – Москва: НОРМА ИНФРА М., 2001. – С.4

kiritadi. Shunday bo'ladiki, Buyuk Restavratsiya davri (1641-1649 yy)da qirol parlament ishongan kishilarni hokimiyatda lavozimlarga qo'yishi mumkin bo'ladi. Davlat boshqaruvi, hokimiyat masalasi parlament tasdig'i bilan olib boriladigan, ushbu prinsipni buzish parlament tomonidan qoralanadigan bo'ladi. Bu aslida konstitutsion monarxiya tomon yo'l edi.

XVIII-XIX asrlarda Angliya hukumati va davlat boshqaruvida konstitutsionalizm konstitutsion monarxiyani mustahkamlash va parlament boshqaruvini, uning boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish sari qarab bordi. Parlamentarizm qirol hokimiyatini chegaralash va parlament boshqaruvini kengaytirish siyosati sifatida tarixga kirdi. Gap shundaki, qirol bilan parlament, konstitutsion monarx bilan parlament tasdiqlaydigan "mas'ul hukumat" o'rtasidagi munosabatlar biror akt, hujjat, konstitutsion norma bilan rasmiylashtirilmagan. Ammo ular o'rtasida konsensus, yozilmagan kelishuv, "konvensional normalar" nomini olgan bitimlar yuzaga keldiki, mazkur tajriba qonunchilik organiga ham, ijro hokimiyatiga ham birdek tushunarli edi. "Qirol shohlik qiladi lekin boshqarmaydi", degan prinsip monarxni davlat hokimiyati organi sifatida tan oldi, ammo hukumat va barcha boshqaruv ishlari parlament (quyi palata va lordlar palatasi) yoki "partiyaviy boshqaruv" qo'liga o'tdi. Sud tizimida o'tkazilgan islohotlar esa ularning mustaqilligini ta'minlashga qaratildi. Shu tariqa Angliyada "yozilmagan konstitutsionalizm", lekin parlament tomonidan tayinlanadigan hukumat, boshqaruv organi mamlakatni idora etadigan, huquqiy adabiyotlarda "vestminster modeli" deb atalgan tizim shakllandi²⁷. Buyuk Britaniyaning ekspansiv siyosati koloniyalarda, ulardagi an'analar va boshqarish tizimlari, organlari bilan chatishib "ingliz hind" va "ingliz musulmon" huquq tizimlarini, ularga muvofiq keladigan davlat hokimiyatini, idora organlarini yuzaga keltirdi²⁸.

Tadqiqotchi fikricha, konstitutsiyalar olamida Buyuk Britaniya (Angliya) tajribasi bir tomondan, tarixiy-siyosiy jarayonlarning in'ikosi sifatida keladi, ikkinchi tomondan, noyob, monarx bilan parlament o'rtasidagi konsensusga, murosaga asoslangan, yozma bo'lmagan normalar sifatida joy oladi. Bunday yozilmagan konstitutsiyaviy normalar va konstitutsional boshqaruv deyarli boshqa davlatlarda uchramaydi. Mazkur ingliz boshqaruv tizimining yuzaga kelishi va xususiyatlarini avvalo o'sha davrdagi ingliz falsafasi va siyosiy huquqiy, kratologik ta'limotlaridan izlash zarur. Shuning uchun ham g'arb falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy tajribalari to'g'risida gap ketganida, avvalo ularning merosi tilga olinadi, bu merosning zamonaviy ilmiy doktrinalar bilan uyg'unligi nazarda tutiladi.

F.Bekonning falsafiy-huquqiy qarashlari otasi ta'sirida shakllangan. O'n olti yoshli F.Bekonni otasi diplomatik missiya tarkibida Parijga yuborishga erishadi, aynan ushbu "falsafiy-kratologik ta'limotlar" uchun muhim bosqich bo'ladi. U davlat boshqaruvi ishlariga qiziqib, Greys Inn korporatsiyasida falsafa va yurisprudensiyani o'rganadi. U yuqori lavozimga erishish orqali aql-u idrokini saroy xizmatiga bag'ishlashi mumkinligini anglaydi²⁹. 1593-yili u umumiy palataga

²⁷ История государства и права зарубежных стран. Часть 2. -Москва: НОРМА ИНФРА М., 2001. - С. 16-19.

²⁸ История государства и права зарубежных стран. Часть 2. -Москва: НОРМА ИНФРА М., 2001. - С.24

²⁹ Бэкон Ф. Сочинения в двух томах. Том 1. – Москва: Мысль, 1977. – С. 8-9

saylanadi va qirolga ajratiladigan subsidiya bo'yicha oppozitsiyaga rahbarlik qiladi. Saroy bilan lordlar palatasi o'rtasidagi tortishuvlar, konstitutsion xususiyatga ega davlat boshqaruvi haqidagi muzokaralar uni davlat arbobiga aylantiradi, u qanday yo'llar bilan bo'lsa-da, saroyga yaqinlashishga, monarxdan biror yuqori lavozim olishga intiladi. F.Bekonning absolyutizm tarafdori bo'lgani uning shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq edi, albatta. U qirol bilan palata, saroy bilan xalq o'rtasidagi siyosiy-huquqiy ziddiyatlarni "markazlashgan davlat", ya'ni absolyutizm nuqtai nazaridan hal etadi. U davlat boshqarishidan norozi bo'lgan guruhlar, partiyalar, hatto deputatlar palatasini turli yo'llar bilan "aldab, va'da berib, ishontirib" laqillatish, "ularni parchalab yuborish" san'atidan foydalanishni taklif etadi. To'g'ri, u palata yig'inlarini chaqirib turishni taklif qiladi, biroq qirol palataga emas, balki palata qirolga bo'ysunishi, itoat etishi kerak edi, bu taklifni Bekon davlatni mustahkamlash, kuchli harbiy, dengiz, harbiy-siyosiy tuzumni shakllantirish, boshboshdoqlikni bartaraf etish maqsadi bilan bog'laydi.

Dissertatsiya davlat hokimiyati va huquq, qonunchilik haqidagi fikrlarini I.Kant shaxs yoki "fuqarolik holati" borasidagi konseptual ahamiyatga ega tezislari bilan boyitilishi ochib beriladi. Uning fikriga ko'ra, "Fuqarolik holati, faqat huquq holati sifatida qaralganida, quyidagi aprior prinsiplarga asoslanadi:

- 1) jamiyatning har bir kishisi inson sifatida erkin;
- 2) uning tengligi boshqa kishilarning tengligiga muvofiq kelishi;
- 3) jamoa har bir a'zosining fuqaro sifatida mustaqilligi.

Mazkur prinsiplarni nafaqat mavjud davlat beradi, balki sof aql, insonga taalluqli tashqi huquq, qonunlar davlatni shakllantiradi"³⁰. Hatto shaxsni baxtli qilish maqsadida davlat o'z hukmini kishiga o'tkazishi, despotizmga yo'l qo'yishi mumkin emas, baxt izlash har bir fuqaroning o'z mayl, istaklari, demak, fuqarolik huquqi demakdir. Faylasufning ushbu pastulati ijtimoiy davlatga bevosita taalluqlidir, chunki ijtimoiy davlatda fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini himoya qilish, ayniqsa yordamga muhtoj kishilarga zarur yordamlar ko'rsatish asosiy vazifa hisoblanadi. "Fuqarolar mustaqilligi" prinsipi esa faqat nochor, kasalmand, qiyin ahvolga tushib boquvchisidan ayrilgan kishilarga yordam ko'rsatishni, qolgan barcha kishilar o'z mustaqilligidan foydalanib, o'zini o'zi boqishi, baxtli qilishi zarurligini bildiradi. I.Kant nazarda tutgan "fuqarolar mustaqilligi" kategoriyasi shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy faolligining ham ifodasidir. XX asrning ikkinchi yarmida Germaniya federal kansleri L. Erxard amalga oshirgan "mo'jiza", ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot I.Kantning "fuqarolik mustaqilligi" prinsipini xususiy ishbilarmonlik va tadbirkorlik bilan bog'laganida edi. U har bir nemisga va har bir nemis oilasiga tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkonini yaratib berdi, ularning iqtisodiy erkinligini qo'llab-quvvatladi. Amerikada demokratizm va konstitutsionalizm prinsipining shakllanishi XVII asrdan, aniqrog'i esa Meyflauer kelishuvi (1620)dan boshlanadi. Ushbu hujjat asosida Virginiya konstitutsiyasi va keyinchalik AQSh (Djeferson va Medison) konstitutsiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu konstitutsiyaga shu kungacha 27 marta o'zgartirish va to'ldirishlar kiritilgan.

³⁰ Кант И. Сочинения в шести томах. Том 4. Часть 2. — Москва: Мысль, 1965. - С. 79

AQShda demokratizm va konstitutsionalizm prinsipi Yevropa va Angliyadagidan farqli ravishda shakllangan. Unga Angliya tajribalari va ingliz ma'rifatparvarlarining, ayniqsa, Lokk va Gobbs g'oyalarining ta'siri katta bo'lsa-da, qit'adagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, davlat boshqarishining paydo bo'lishi, xususi sektorning kishilar faoliyati va turmush tarziga ta'siri, erkinlik boshqacha siyosiy paradigmaga qurilgan. Ingliz, fransuz, ispan va niderland sarguzashtchilarining qit'aga oqib kelishi, istagan hududni o'ziga mulk qilib olishi, tilla topish vasvasi, tadbirkorlikning protestantizm bilan uyg'unlashuvi kabi omillar davlat tizimiga ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Ingliz kolonizatorlarining faolligi, ularning boshqa kolonizatorlarni siqib chiqarishi, Angliya demokratik boshqaruvdagi elementlarning joriy etilishi yoki ularning qo'llab-quvvatlanishi, parlamentarizm va hokimiyatni uchga bo'linish g'oyasi endi o'zlashtirilayotgan qit'a sharoitiga muvofiq edi. Biroq bu Angliya siyosiy tajribalarini ko'r-ko'rona ko'chirish emas edi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, demokratiya, konstitutsionalizm prinsipini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy tajribalar ko'rsatadiki, demokonsitutsionalizm prinsipining qaror topishi Angliyada qirol va palatalar, Fransiya absolyutizm, monarx bilan xalq, Germaniyada konstitutsion monarxiya bilan lyumperlar, proletarlar va burjuaziya o'rtasidagi davlat hokimiyati uchun kurashlar natijasidir. Hokimiyatning bo'linishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat boshlig'ining palatalarga, kongressga hisob berishi, davlat byudjetining shaffofligi va xalq orasida muhokama qilinishi, prezident va munitsipal organlarga saylovlar o'tkazish, prezidentga impichment berish kabilar shular jumlasidandir. Davlat hokimiyatini inson huquq va erkinliklarini ta'minlash institutiga aylantirish, boshqarish tizimlarini adolatli va samarali ishlashiga erishish, xalq ommasining manfaatlari va qiziqishlari ustuvorligini e'tirof etgan holda, barcha amaldorlar faoliyatini xalq bilan birga bo'lishga, uning og'irlarini yengil qilishga ko'maklashishga yo'naltirish G'arb ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari markazida bo'lib kelgan.

Ilmiy adabiyotlarda, ko'pchilik tadqiqotchilar AQSh demokratiyasini ibrat, namuna qilib ko'rsatishga intilishadi, aslida ularning bu qarashlari publitsistikadan olingan misollar yengil-yelpi bayonlar mahsullaridir. Fundamental ilmiy adabiyotlar ko'rsatadiki, AQSh demokratiyasini shakllantirayotgan siyosatchilar, yirik biznes va gegemonistik qarashlar egalaridir. Ular AQShni dunyodagi yagona yirik kuch, faqat u yaratgan demokratik prinsiplar dunyoda qaror topishi zarur, deb biladilar. Bu g'ayrihayotiy qarash, uning noto'g'riligini xalqlar o'z mustaqilligi va o'z etnosiyosiy tajribalariga tayanishga intilishlari bilan ham tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Demokratizm va konstitutsionalizm sharqona modellarning falsafiy-kratologik jihatlarini”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda Xitoy davlatchiligining falsafiy-kratologik va etnosiyosiy asoslari, Hind sivilizatsiyasida demokratik etnoan'analar va konstitutsionalizm, Old Osiyo va O'rta Osiyo davlatlarida demokratik va konstitutsiyaviy islohotlar namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiq etilgan.

Sharqda davlat boshqaruvining despotik ko‘rinishi shakllangan, unda demokratiya va konstitutsion boshqaruv mavjud bo‘lmagan, shu bois u zamonaviy demokratik modellarga muvofiq kelmaydi. Gegel, Monteskyoga borib taqaluvchi ushbu qarash G‘arb adabiyotlarida keng tarqalgan. Konfutsiy monarxiya, yakka hukmronlik tarafdori bo‘lgan, busiz markazlashgan davlat ham, uni boshqarish ham mumkin emas deb hisoblagan va uning fikricha, Osmonda ikki Quyosh bo‘lmaganidek, Yerdada ham ikki “Osmon o‘g‘li” bo‘lishi mumkin emas. Lekin donishmand mustabidlikni, zo‘ravonlikni qoralaydi. “Davlatni boshqarish nafaqat yaqindagi, xuddi shuningdek, uzoqlardagi kishilarni xursand qilish demakdir”³¹. Ushbu “uzoqdagilar”ni xalq ommasi, barcha fuqarolar, uzoq hududlarda yashovchilar tarzida tushunish mumkin. Bu demokratik boshqaruv amal qiladigan prinsipdir.

Dissertant fikricha, Xitoy davlatchiligi va etnosiyosiy tajribalarini konfutsiylik an‘analari bilan chegarlab qo‘yish mumkin emas, ularda urf-odatlariga, axloqiy imperativlarga tayanish bilan birga falsafiy-kratologik yondashuvlar ham talaygina. Bu o‘rinda avvalo Mo Szi (er. avv. 475-395 yy) qarashlarini eslash zarur. Konfutsiylik ta‘sirida shakllangan Mo Szi keyinchalik undan voz kechadi va “adolatli boshqarish” prinsipini ilgari suradi. Bu prinsip axloqiy me‘yorlarga emas, balki hamma amal qilishi shart bo‘lgan huquq fenomeniga tayanadi. Uning falsafiy-kratologik ta‘limotiga ko‘ra, adolat Osmon ostidagi eng qimmatli narsadir. U qonunlarsiz qaror topmaydi. Hukmdor qabul qiladigan qarorlar adolatli bo‘lishi, fuqarolarda adolatga hurmat uyg‘otishi darkor³². Donishmand adolatni kishilarga ehtiyojlari va ko‘nikmalariga muvofiq ish, lavozim berishda ko‘radi. U adolatni devor tiklashga qiyoslaydi. G‘isht teruvchi va loy tashuvchi o‘z vazifasi bilan shug‘ullanishi kerak. Agar loy qoruvchi g‘isht tersa devor tik chiqmasligi aniq. Ularning har biri o‘z vazifasi bilan shug‘ullansa, devor o‘z vaqtida va sifatli tiklanadi.

Agar Konfutsiy adolatni jamiyatdagi tabaqalar, sinflar o‘rtasida subordinatsiyani saqlash orqali qaror toptirish mumkin, deb hisoblasa, Mo Szi bu prinsipni inkor qiladi. U tabaqaviy itoat o‘rniga “umumiy mehr-muhabbat” prinsipini ilgari suradi. U hech kim ajdodlari, nasl-nasabiga qarab lavozimlar egallashi mumkin emas, har kim o‘z iqtidoriga yarasha ish qilsa, adolat qaror topadi, deb biladi. Jamiyatda tabaqa-sinflarga bo‘linish emas, balki unda barcha teng “umumiy mehr-muhabbat”ni qaror toptirish muhimdir. Faqat “umumiy mehr-muhabbat” adolatlidir³³.

Xitoy davlatchiligi va etnosiyosiy ta‘limotlarining shakllanishida Men Szi (er. avv. 372-289)ning ham o‘z o‘rni bor. L.Feyerbax uni “Konfutsiydan keyin turadigan Xitoydagi eng buyuk faylasuf” deb atagan³⁴. Uning davlat boshqaruvi, adolat, kishilarda adolatga nisbatan ishonch uyg‘otish haqidagi fikrlari e‘tiborga loyiqdir.

³¹ Мудрецы Поднебесной.- Симферополь: Ренемо, 1998. - С. 119

³² История китайской философии. – Москва: Прогресс, 1989. - С.76

³³ Алимасов В. Ижтимоий маънавий мерос ва шарқ давлатчилиги. – Тошкент: NOSHIR, 2013. – Б.81-82.

³⁴ История китайской философии. -Москва: Прогресс, 1989. – С. 206.

Dissertatsiyada ijtimoiy davlat barpo etish kimlarningdir istaklari va utopik modellari emas, u jamiyat va davlat rivojlanishining evolyutsion taraqqiyoti natijasi bo'lganida samara berishi asoslangan. Demokonstitutsionalizm esa ijtimoiy davlatchilikning atributi, immanent belgisi, ichki siyosiy jarayonlarga, ayniqsa jamiyat va davlatni boshqarishga, hokimiyatning samarali ishlashiga, fuqarolarning siyosiy faolligi va sotsiumda huquqiy madaniyatning, normalarning amal qilishiga taalluqli voqelik sifatida keladigan prinsiplardir. Demokratizm xalq hokimiyatchiligining fundamental qonunlariga tayanadi, unda davlat boshqarish organi qabul qiladigan qarorlar, mamlakat rivojlanishiga oid rejalar bevosita xalq, aholi yoki ularning vakillari muhokamalaridan o'tadi. Konstitutsionalizm esa jamiyat va davlat hayotida qonunlar ustuvorligini ifodalovchi prinsipdir. Demokratizm va konstitutsionalizm bir-birini taqozo etib keladi, ular birgalikda kelganida ijtimoiy davlatga xos ijtimoiy adolat, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy hamkorlik va ijtimoiy himoya real voqelikka aylanadi, ijtimoiy hayotdan joy olib, boshqarish faoliyatiga mazmun, mohiyat baxsh etadi.

Tadqiqotda Sharq davlatlari ichida Turkiya janubiy-sharqiy Yevropa va janubiy-g'arbiy Osiyo hududida joylashgan, o'zining demokratik an'analari va konstitutsionalizm tajribalariga ega davlat hisoblanishi borasida ham fikr yuritiladi. Mustafo Kamol Otaturk mustaqil turk davlatini shakllantirish uchun Shveysariyaning fuqarolik kodeksini, Italiyaning jinoyat kodeksini va Germaniyaning savdo huquqiga oid normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qildi. Arab alfavitini lotin alfaviti bilan almashtirdi. Xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'ldi. Din davlatdan ajratildi, sekulyarizm davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Bugun Turkiyada yoshlarning zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi uchun 160 dan ziyod universitet faoliyat yuritadi, o'rta maktabni bitiruvchilarning 60-70 foizi kollej yoki universitetlarga o'qishga kiradi. Otaturk mamlakatni boshqarishni o'zi hal etish imkoniga ega bo'ldi, bu demokratiya emas edi, albatta. Shundan beri avtokratizmni demokratik boshqarish bilan uyg'unlashtirish turk modelining o'ziga xos xususiyati bo'lib keladi³⁵.

Turkiyadagi "demokratik o'zgarishlar nodemokratik yo'llar bilan amalga oshirilgan"³⁶. Bu o'rinda turk saltanatiga xos bo'lgan etnosiyosiy an'analar va kratologik usullar o'z ta'sirini ko'rsatgani ko'zga tashlanadi. Ayniqsa Turkiyaning Yevropa davlatlari bilan o'rnatgan integratsion aloqalari endi mamlakatni despotik boshqarish katta siyosiy xatolarga olib kelishi ayon. Turk sultonlariga xos nodemokratik boshqarishni zamonaviy demokratik boshqarish usullari bilan uyg'unlashtirish Otaturk demokratik siyosatining xususiyatiga aylandi³⁷.

³⁵ OECD Education at a Glance, 2022 – Turkey Country Profile

³⁶ Qarang: Аватков В.А., Сбитнева А.И. Турция в современном мире: между демократией и авторитаризмом // "Ближний Восток и современность", 2012, № 4. – С. 2-9; Киреев Н.Г. История политического ислама в Турции, 2017. "Вестник Института Востоковедения" РАН; Democracy index 2021. London.

³⁷ Раянов Ф.М. Турция на пути к правовому государству // "Правовое государство: теория и практика", 2014. - №2. -С.12-18

Dissertant mulohazalariga ko'ra, demokstitutsionalizmning Sharqona modellari rang-barang, shakllari ko'p, Xitoy, Hind, Rossiya, Old Osiyo (Eron, Turkiya) va O'rta Osiyo (Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikalari) etnosiyosiy tajribalari, modellarning retrofalsafiy tahlili ko'rsatadiki, ularda demokratizm va konsitutsionalizm etnosiyosiy tajribalariga muvofiq, evolyutsion yo'l bilan shakllanishda davom etmoqda. Xitoy va Hindiston etnosiyosiy tajribalarida o'ziga xoslik g'arbona demokratizm va konstitutsionalizm bilan uyg'unlashib keladi. Biroq ularning ikkalasi ham "buyuk davlat" bo'lishga intiladi. Ular milliy demokratik taraqqiyotida tarixiy-madaniy boyliklari va ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga katta e'tibor berishadi. Old Osiyo va O'rta Osiyodagi mustaqil respublikalar ham mamlakatlarini g'arbona modellar (romano-german va anglo-sakson huquq tizimi) ga taqlid modernizatsiyalashga intilishadi. Lekin ularda neopatrimonial ijtimoiy munosabatlarga, etnoan'analarga tayanish ustuvordir. Shu bois ulardagi demokratizm va konstitutsionalizmni g'arbona me'yorlar bilan o'lchash bir tomonlama, hatto noto'g'ri yondashuvdir.

G'arb modeli bilan o'lchab bo'lmaydigan etnosiyosiy taraqqiyot — Sharq konstitutsionalizmining mohiyati. Sharq mamlakatlarida konstitutsiyaviy islohotlar tashqi ko'rinishda G'arb tajribasiga yaqin ko'rinsa-da, ularning asosiy harakatlantiruvchi omillari etnosiyosiy an'analar, neopatrimonial tuzilma va tarixiy xotira bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun, bunday davlatlarda demokratiya va konstitutsionalizmni baholashda faqat liberal paradigmalarga tayangan yondashuv torlik qiladi. Aslida, bu – muvozanat, uyg'unlik, va tarixiy-madaniy kontekstga moslashuv asosida shakllanayotgan siyosiy tafakkurning ifodasidir. Shunday qilib, Sharq konstitutsionalizmi — bu murakkablikni tan olgan, va universal mezonlarga emas, balki o'z tarixiy haqiqatiga tayangan siyosiy falsafiy yo'ldir.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish konsepsiyasi va uning ijtimoiy-falsafiy masalalari”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda O'zbekistonda siyosiy paradigmal o'zgarishlar tahlil etilgan hamda ijtimoiy davlatning demokratik huquqiy xususiyatlari milliy va xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili asosida ochib berilgan, konstitutsion islohotlarning ijtimoiy ahamiyati va demokstitutsionalizm prinsipini shakllantirishdagi o'rni hamda o'zbek ijtimoiy davlatini mustahkamlashning milliy institutsional muammolari tadqiq etilgan.

Yangi O'zbekistonda ro'y bergan tub o'zgarishlar, davlat hokimiyatining xalq manfaatlarga xizmat qiladigan institutga aylantirilishi, demokratizm va konstitutsionalizmning ijtimoiy hayotdan barqaror joy olishi, 2030 yilga borib respublikamizni ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqish strategik maqsadi xalq hayotini, uning milliy taraqqiyotga bo'lgan munosabatlarini butunlay yangi pog'onaga ko'tarmoqda. Ushbu o'zgarishlar Asosiy Qonunga ma'lum bir tuzatishlar kiritishni taqozo etdi. 2022-2023 yillarda o'tkazilgan Konstitutsion islohotlar yangi demokstitutsion muhitga va milliy demokratik taraqqiyot talablariga muvofiq keladi.

Tadqiqotda O'zbekistonda demokstitutsionalizmning yangi paradigmal, siyosiy voqelik sifatida shakllanishi aslida mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilingan 1990-yil 20-iyundan boshlanganligi izohlanadi. Deklaratsiyaning o'n birinchi qismida O'zbekiston xalq referendumi asosida demokratik huquqiy davlat qurishni maqsad qilib qo'yishi, Konstitutsiya qabul qilishi ko'rsatilgan. Shu tariqa O'zbekistonda sovet davridagi holatdan keskin farq qiluvchi va kelgusi tub o'zgarishlar uchun siyosiy, huquqiy zamin, ya'ni demokratik va konstitutsionalistik (demokstitutsional) asos yaratilgan.

Tadqiqotchi fikricha O'zbekistonda amalga oshirilgan paradigmal o'zgarishlarga boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Masalan, B.Talapov ularni quyidagilarda ko'radi:

1) chin demokratik taraqqiyotga o'tish ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda tub o'zgarishlar o'tkazish bilan birga jamiyatdagi barqarorlikni, ijtimoiy birlikni, internatsional aloqalarni saqlash va yanada mustahkamlashni taqozo etadi;

2) milliy demokratik taraqqiyot soxta demokratiyani rad etadi, har qanday ijtimoiy munosabatlar insonni ulug'lashga, uning sha'ni va huquqlarini ta'minlashga qaratilishi zarur;

3) o'tish davrini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar, xalqlar bir tomondan, ijtimoiy hayotini demokratlashtirish, liberallashtirish va modernizatsiyalashtirishni ko'zlasa, ikkinchi tomondan, o'zining tarixiy-madaniy an'alarini, ma'lum bir sabablar bilan unutilgan yoki chetlab o'tilgan siyosiy, iqtisodiy, diniy- ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklashga intiladi;

4) huquqiy davlat barpo etish bilan hokimiyatni personizatsiyalashtirish an'anasi yuzaga keladi³⁸.

Qaysi biri – konstitutsion davlatmi yoki demokratik davlatmi, – oldin paydo bo'lganini isbotlash imkoni yo'q, biroq tadqiqotchining konstitutsiyaviy davlat demokratik davlat va, aksincha, demokratik davlat konstitutsiyaviy bo'lishi kerak, degan fundamental ahamiyatga ega fikriga qo'shilish darkor.

O'zbekistonda konstitutsiyaviy davlat qurishga kirishish konstitutsiya qabul qilinishidan oldinroq boshlangan. M.Mirxamidov yozadi: "Aslida O'zbekistonda konstitutsiyaviy davlat qurishga kirishish ancha oldin, ya'ni O'zbekiston Oliy Sovetining o'n ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida respublika Prezidenti lavozimini joriy etish va uning konstitutsiyaviy huquqiy statusini belgilab berishga qaratilgan normativ hujjatlar qabul qilish bilan boshlangan edi. Ushbu qadam ketidan ijroiya hokimiyatini, ma'muriy idoralarni, Vazirlar Mahkamasini qayta tuzish, viloyat va tumanlarda hokim lavozimlarini joriy etish kabi yangiliklar amalga oshirildi"³⁹. Mazkur etnosiyosiy va kratologik tajribalarda ijobiy tomonlar bilan birga salbiy tomonlar, me'yoriga yetmagan qonunlar, ba'zan esa deklarativ xususiyatga ega qaror va farmonlar ham qabul qilindi. Biroq bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun yangi yondashuvlar, kreativ kuchlar va siyosiy iroda zarur edi. Ijtimoiy hayot va demokratik taraqqiyotning paradoksal tomonlari mudom

³⁸ Талапов Б. Демократия ва Ўзбекистонда миллий демократик тараққиёт. – Наманган, НДУ, 2018. – Б.66-72

³⁹ Мирхамидов М. Государственный суверинитет и становление современной узбекской национальной правовой государственности. – Тошкент: Фан, 1994. – С. 19.

demokratiya bilan konstitutsionalizm o'rtasida u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa boqib, chopib, izlanishga majbur qilganini unutib bo'lmaydi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar inson qadrini ulug'lash, xalqchil, demokratik, ijtimoiy adolat, tenglik va hamkorlikni e'zozlovchi ijtimoiy davlat qurishga qaratilgan. Ijtimoiy davlat huquqiy, konstitutsiyaviy tartiblarga rioya etadigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiladigan, kafolatlaydigan siyosiy institutdir. Huquqni deklarativ e'lon qilish, hatto konstitutsion qonunlar qabul qilish bugun muammo emas, ammo ularni amalda ta'minlash dolzarb muammolardan biriga aylangan. Bu borada ilg'or davlatlarda ma'lum bir tajribalar to'plangan, ularda e'tiborli, o'zlashtirishga arziydigan usullar mavjud. O'zbek ijtimoiy davlati (modeli)da g'arbona tajribalarga muvofiq modernizatsiyalashtirishga moyillik borligini inkor qilolmaymiz, ammo bu milliy tajribalarga tayanishni rad qilmaydi. Demokonstitutsionalizm tajribalarga tayanib, kontinuum tarzda, o'zini ham, milliy konstitutsional muhitni ham boyitadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz o'zbek ijtimoiy davlatini mustahkamlashning asosiy, fundamental ahamiyatga ega prinsiplarini o'zida mujassam qildi. Undagi bosh prinsip inson qadrini ulug'lash, davlat institutlarini xalq manfaatlariga xizmat qildirish, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash o'z zimmasiga oladigan demokratik institutlarni, boshqarishni va organlarni shakllantirish, yangi O'zbekistonda "barqaror jamiyatni va bardavom taraqqiyotni ta'minlash"dir. Biroq bu prinsiplar boshqa bir davr kelganida boshqacha ifoda etilishi, hatto boshqacha talqin qilinishi mumkin, ammo "inson qadrini ulug'lash" va "ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash" ularning ham o'zgarmas yadrosi bo'lib qoladi.

XULOSA

Ijtimoiy davlat barpo etish ziddiyatlarga va ichki qarama-qarshiliklarga to'la jarayonlarni konstruktiv, ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga mos keladigan siyosiy, huquqiy, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy mexanizmlar bilan hal etiladigan fenomenal hodisadir. Bu faoliyat stereotip tasavvurlarga, tayyor ta'riflar va sxemalarga sig'maydi, ularni sxemalashtirish, modellashtirish faqat ilmiy maqsadlar uchun darkordir. Ijtimoiy davlat qurishda demokratizm va konstitutsionalizmga xos tajribalarning falsafiy xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. "Ijtimoiy davlat" va "demokratiya", "konstitutsiya" siyosiy nuqtai nazardan, bir biriga yaqin etimologik tushunchalardir. Ijtimoiy davlat keng, siyosiy voqelik, u barcha ijtimoiy munosabatlarni ifoda etib keladi. U davlat, boshqaruv, hokimiyat, rahbarlik, iyerarxiya va subordinatsiya aloqalari, siyosat, axloq, madaniyat, iqtisodiyot, xalqaro aloqalar va tashqi diplomatiya, o'zining suveren huquqlariga ega ijtimoiy siyosiy institutdir. Demokratiya (demokratizm) va konstitutsiya (konstitutsionalizm) esa uning atributiv belgilari, ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini anglatuvchi prinsiplaridir. Zamonaviy davlatlarning mavjudligi sharti ham

demokonstitutsionalizm prinsipiga amal qilish va uning imkoniyatlari hamda mexanizmlaridan foydalanishdadir.

